





CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib



Yirik
korxonalar



Kichik biznes va xususiy
tadbirkorlik subyektlari


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **5 630,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **3,8** % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **597,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **91,2** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **5 033,3** mlrd. so'mni (**3,2** % ga kamaydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **457,9** mlrd. so'mni (**22,9** % ga kamaydi) tashkil etdi.

Tarkibiy qism, ulushlarda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **5 630,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **96,2 %** ni tashkil etdi.



Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **89,4 %** va yirik korxonalar hissasiga **10,6 %** to'g'ri keldi.

ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Andijon shahri **35,0 %** ulush bilan **1 970,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Andijon sh.
1 970,1

Baliqchi
284,9

Andijon
270,2

Xo'jaobod
265,8

Marhamat
186,7

Jalaquduq
183,6

Buloqboshi
124,2


Ulug'nor
51,1

ENG QUIY ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Ulug'nor tumani **0,9 %** ulush bilan **51,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.



YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	
		2019-yil yanvar-may
		2020-yil yanvar-may

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, **5 033,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **3,2** % ga kamaygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **89,4** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Ulug'nor (99,8 %), Xo'jaobod (99,0 %), Izboskan (98,9 %), Qo'rg'ontepa (98,7 %), Jalaquduq (98,5 %), Shahrixon (98,3 %) va Marhamat (98,0 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Xonobod shahrida (100,0 %), Andijon (99,9 %) tumanida va Andijon shahrida (98,6 %) qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	5 630,5	96,2	597,2	91,2	5 033,3	96,8
Andijon sh.	1 970,1	98,6	473,1	91,9	1 497,0	100,8
Xonobod sh.	56,7	100,0	7,2	2,7 m.	49,5	91,6
tumanlar:						
Oltinko'l	201,7	94,7	8,1	91,9	193,6	94,8
Andijon	270,2	99,9	38,0	190,2	232,2	92,7
Baliqchi	284,9	96,2	11,8	149,7	273,1	94,7
Bo'ston	56,1	95,1	5,4	114,7	50,7	93,4
Buloqboshi	124,2	92,2	2,8	97,6	121,4	92,1
Jalaquduq	183,6	95,2	2,7	90,6	180,9	95,3
Izboskan	238,9	97,8	2,6	73,7	236,3	98,1
Ulug'nor	51,1	92,7	0,1	73,4	51,0	92,8
Qo'rg'on-tepa	397,8	96,3	5,1	106,2	392,7	96,2
Asaka	575,5	90,3	19,7	36,3	555,8	95,4
Marhamat	186,7	90,7	3,8	109,6	182,9	90,4
Shahrixon	528,3	94,0	8,8	52,8	519,5	95,2
Paxtaobod	238,9	97,2	5,2	101,8	233,7	97,1
Xo'jaobod	265,8	98,5	2,8	104,5	263,0	98,5



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **8,8 %** ga kamaydi va **597,2** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **10,6 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **5 033,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **3,2 %** ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **89,4 %** ni tashkil etdi.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Ulug'nor (99,8 %), Xo'jaobod (99,0 %), Izboskan (98,9 %), Qo'rg'ontepa (98,7 %), Jalaquduq (98,5 %) va Shahrixon (98,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 10,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon shahrida (24,0 %), Andijon (14,1 %), Xonobod shahrida (12,7 %) va Bo'ston (9,6 %) tumanlarida kuzatildi.






ANDIJON VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2020-yil yanvar-may oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1 796,8** ming so'm (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **5,7** % ga kamaydi) va Xonobod shahri (98,1 %) hamda Andijon (97,7 %), Andijon shahri (96,8%), Xo'jaobod (96,4 %), Izboskan (95,8 %), Paxtaobod (95,3 %), tumanlari va boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Andijon shahri (4 450,2 ming so'm), Xo'jaobod (2 422,7 ming so'm) va Qo'rg'ontepa (1 848,7 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, % da
Andijon viloyati	1 796,8	94,3
Andijon sh.	4 450,2	96,8
Xonobod sh.	1 331,5	98,1
tumanlar:		
Oltinko'l	1 139,3	92,7
Andijon	1 029,6	97,7
Baliqchi	1 426,7	94,3
Bo'ston	780,8	93,2
Buloqboshi	874,3	90,5
Jalaquduq	992,1	93,7
Izboskan	1 008,3	95,8
Ulug'nor	861,0	91,0
Qo'rg'ontepa	1 848,7	94,5
Asaka	1 763,3	88,5
Marhamat	1 082,8	89,0
Shahrixon	1 771,6	92,0
Paxtaobod	1 243,7	95,3
Xo'jaobod	2 422,7	96,4




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib, foizda




O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **457,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **22,9 %** ga kamaydi. Shu jumladan, 1 - bozor va 1 - bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **182,5** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **82,4 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **275,4** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **74,0 %**) tashkil etdi.



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2020-yilning yanvar-may oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **182,5** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **275,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	457,9	77,1	182,5	82,4	275,4	74,0
Andijon sh.	77,0	77,1	46,5	82,7	30,5	82,5
Xonobod sh.	0,3	95,5	0,3	95,5	0,0	0,0
tumanlar:						
Oltinko'l	18,6	89,1	9,8	94,2	8,8	84,0
Andijon	4,2	79,4	4,2	79,4	0,0	0,0
Baliqchi	34,8	86,4	4,8	92,2	30,0	85,5
Bo'ston	3,4	54,2	1,2	57,0	2,2	52,8
Buloqboshi	21,9	71,9	7,8	89,1	14,1	65,0
Jalaquduq	22,5	92,8	3,4	165,6	19,1	86,0
Izboskan	5,1	80,5	2,1	92,7	3,0	73,9
Ulug'nor	3,6	51,6	1,5	29,4	2,1	109,6
Qo'rg'ontepa	17,8	65,7	6,2	63,3	11,6	67,1
Asaka	66,0	67,5	33,3	80,3	32,7	58,1
Marhamat	34,4	63,4	12,9	60,7	21,5	65,2
Shahrixon	87,0	78,8	29,9	106,5	57,1	69,3
Paxtaobod	37,1	86,2	13,0	77,2	24,1	92,0
Xo'jaobod	24,2	89,7	5,6	87,5	18,6	90,4



1,6
mlrd. so'm

Tuzlamalar



76,2
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari



7,3
mlrd. so'm

Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

45,3
mlrd. so'm



Non va non
mahsulotlari



4,0
mlrd. so'm

Sut va sut
mahsulotlari



2,3
mlrd. so'm

Tuxum



34,7
mlrd. so'm

Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)



0,8
mlrd. so'm

Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar

2020-yilning yanvar-may oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **182,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**76,2** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

3,4
mlrd. so'm



Ziravorlar

5,8
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

1,1
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

2020-yilning yanvar-may oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **275,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 220,2 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar 51,0 mlrd. so'mni, otlar 2,5 mlrd. so'mni, parrandalar 1,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA
YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2020-yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **0,9 %** ni tashkil etib, **51,7** mlrd. so'mga yetdi va 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **34,6 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **92,2 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasining
o'sish sur'atlari, foizda




	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	51,7	65,4	4,0	98,9	47,7	63,6
Andijon sh.	19,8	59,5	3,5	194,7	16,3	51,8
Xonobod sh.	0,5	78,0	-	-	0,5	78,0
tumanlar:						
Oltinko'l	3,4	71,6	-	-	3,4	71,6
Andijon	3,9	62,9	0,5	22,7	3,4	86,0
Baliqchi	1,5	64,5	-	-	1,5	64,5
Bo'ston	0,3	74,4	-	-	0,3	74,4
Buloqboshi	1,0	74,8	-	-	1,0	74,8
Jalaquduq	1,4	69,2	-	-	1,4	69,2
Izboskan	1,0	72,8	-	-	1,0	72,8
Ulug'nor	0,7	68,4	-	-	0,7	68,4
Qo'rg'ontepa	2,0	72,8	-	-	2,0	72,8
Asaka	3,9	73,6	-	-	3,9	73,6
Marhamat	1,6	79,6	-	-	1,6	79,6
Shahrixon	6,2	70,5	-	-	6,2	70,5
Paxtaobod	1,2	80,2	-	-	1,2	80,2
Xo'jaobod	3,3	61,8	-	-	3,3	61,8



ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda



Yirik
korxonalar



Mikrofirma va
kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 199,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **0,3 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi **541,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **140,9 %**), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **658,2** mlrd. so'mni (**19,6 %** ga kamayish), shundan mikrofimalar savdo tovar aylanmasi **561,0** mlrd. so'mni (**15,7 %** ga kamayish) va kichik korxonalar savdo tovar aylanmasi **97,1** mlrd. so'mni (**36,7 %** ga kamayish) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar






ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Asaka (19,4 m.) va Jalaquduq (2,2 m.), Shahrixon tumanlarida (2,1 m.) kuzatildi.

Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari Qo'rg'ontepa (140,2 %) va Andijon shahrida (103,9 %), Shahrixon (99,5 %) tumanlarida qayd etildi.


Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mln. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mln. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	1 199 856,0	99,7	541 697,4	140,9	658 158,6	80,4
Andijon sh.	649 074,2	103,9	406 188,2	119,1	242 886,0	85,5
Xonobod sh.	9 624,0	92,6	502,0	-	9 122,0	87,8
tumanlar:						
Oltinko'l	24 686,7	84,6	68,5	93,6	24 618,2	84,6
Andijon	25 671,9	83,6	39,4	43,7	25 632,5	83,7
Baliqchi	26 837,1	84,9	109,7	91,1	26 727,4	84,9
Bo'ston	14 864,0	88,8	23,8	49,5	14 840,2	88,9
Buloqboshi	10 374,2	87,6	0,0	-	10 374,2	87,6
Jalaquduq	8 851,6	86,9	94,2	2,2 m.	8 757,4	86,4
Izboskan	53 857,5	85,0	68,4	39,3	53 789,1	85,1
Ulug'nor	6 849,1	92,5	46,9	81,6	6 802,2	92,5
Qo'rg'ontepa	73 926,9	140,2	59 575,0	172,4	14 351,9	79,0
Asaka	214 782,5	92,9	64 745,7	19,4 m.	150 036,8	65,8
Marhamat	3 987,5	88,1	37,8	55,4	3 949,7	88,6
Shahrixon	61 598	99,5	10 094,0	2,1 m.	51 504,0	90,1
Paxtaobod	9 745,5	91,6	66,2	66,4	9 679,3	91,8
Xo'jaobod	5 125,3	84,8	37,6	43,3	5 087,7	85,4



YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, **658,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **19,6** % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **54,9** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Buloqboshi (100,0 %), Izboskan (99,9 %), Andijon (99,8 %), Bo'ston (99,8 %) va Oltinko'l (99,7 %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Qo'rg'ontepa (19,4 %) tumaniga to'g'ri keldi.

